

## BANK TIZIMI DAROMADLARI, XARAJATLARI VA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI

**Rahimov Muhammadnosir Rustam o'g'li**

Toshkent moliya instituti magistranti

[R.Muhammadnosir\\_moliya@mail.ru](mailto:R.Muhammadnosir_moliya@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Maqola O'zbekiston Respublikasi bank tizimi daromadlari, xarajatlari va daromadlilik ko'rsatkichlari bilan bog'liq ba'zi jihatlarni yoritishga qaratilgan. Shuningdek daromadlar dinamikasi va strukturasi, xarajatlar dinamikasi va tuzilishi, bank faoliyatini asosini aks ettiruvchi bir qator indikatorlar keltirilgan. Muhokama oxirgi uch yillik, ya'ni 2019-2021-yillardagi mamlakatimiz bank tizimi ko'rsatkichlarining qiyosiy tahliliga qaratilgan. Rentabellik ko'rsatkichlari bank boshqaruvida muhim axborot qiymatiga ega foydali manba hisoblanadi va maqolaning asosiy nuqtasi aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foizli marja koeffitsienti, kapital multiplikatori, xarajatlarning daromadga nisbati kabi ko'rsatkichlarga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** daromad, xarajat, daromadlilik, aktiv, kapital, marja, aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi.

### ANALYSIS OF INCOMES, EXPENSES, AND PROFITABILITY INDICATORS OF THE BANKING SYSTEM

### ABSTRACT

The paper is centered on presenting some aspects regarding incomes, expenses and profitability of the banking system of the Republic of Uzbekistan, such as: income dynamics and structure, expenses dynamics and structure, a set of indicators which reflects the main banks performances. Discussion is focused on a comparative analysis of the country's banking system over the past three years. Profitability indicators are very usefully from banks management having an important informational value, the main discussion being focused on: return on assets (ROA), return on equity (ROE), net assets margin, equity multiplier, expenses to income ratio.

**Keywords:** income, expenses, profitability, asset, equity, margin, return on assets, return on equity.

## KIRISH

Milliy iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'p jihatdan bank sektori faoliyati samaradorligiga bog'liq. Raqobat, jahon moliyaviy integratsiyasi va bank faoliyatining universallashtirish sharoitida raqobatchilar faoliyatiga javob bera olish va o'zgaruvchan bozor sharoitlariga tezkorlik bilan javob berish bank faoliyati samaradorligining asosiy omiliga aylanadi. Jahonda kuzatilgan iqtisodiy inqirozlar bank boshqaruvida iqtisodiy tahlilning rolini oshirish zarurligini ko'rsatdi.

Hozirgi davrda bank tizimining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va maqsadlari iqtisodiy munosabatlar, ya'ni iqtisodiy o'sishga erishish uchun muhim o'ringa ega bo'lgan investitsiyalarda kreditor va debitor o'rtasidagi asosiy vositachining xususiyatiga bog'liq. Tijorat banklari har bir mamlakatda muhim iqtisodiy institut bo'lib, zamonaviy iqtisodiyotda eng asosiy kreditor sifatida xizmatlar va mahsulotlar taklif qilish orqali biznes muhitini rivojlantirishni qo'llab quvvatlaydi.

Tijorat banklarining asosiy maqsadi yuqori rentabellik yoki tavakkalchilikni minimallashtirib yuqori daromad olish. Daromadlilik banklar boshqaruv sifatini aks ettirib, bank tizimidagi pozitsiyasini ifodalaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bank tizimi daromadlari, xarajatlari va daromadlilik ko'rsatkichlari bank faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lgani sababli bu ko'rsatkichlar tahlili bo'yicha O'zbekiston, MDH va xorijiy davlatlar mutaxassislari va olimlari tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan va keng miqyosda o'rganilgan.

Tahlil jarayonida statistik, iqtisodiy-matematik, prognozlashtirish, iqtisodiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tijorat banklari daromadlari foizli va foizsiz daromadlarni o'z ichiga oladi. Foizli daromadlar: O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankidagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlar, boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlar, oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli daromadlar, investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar, sotib olingan veksellar bo'yicha foizli daromadlar, mijozlarning majburiyatlari bo'yicha hisoblangan foizlar, bankning to'lanmagan akseptlari yuzasidan mijozlar majburiyatlari bo'yicha foizli daromadlar, kredit va lizing operatsiyalari bo'yicha foiz, diskont (chegirmalar) va badallar, qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli daromadlar va boshqa foizli daromadlar,

Foizsiz daromadlar: ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlar, xorijiy valyutadagi foyda, tijorat operatsiyalaridan olingan foyda, investitsiyadan olingan foyda va dividendlar va boshqa foizsiz daromadlar.


Tijorat banklari xarajatlari esa foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarga bo'linadi. Foizli xarajatlar: talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar, jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar, muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar, MBning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar, boshqa banklarning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar, kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar, qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli xarajatlar va boshqa foizli xarajatlar.

Foizsiz xarajatlar: xizmat va vositachilik xarajatlari, xorijiy valyutada ko'rilgan zararlar, tijorat operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar, investitsiyadan ko'rilgan zararlar va boshqa foizsiz xarajatlar.

Operatsion xarajatlar: bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar, ijara va ta'minot xarajatlari, xizmat safari va transport xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, reprezentatsiya va xayriya, eskirish xarajatlari, sug'urta, soliq, jarimalar va boshqa operatsion xarajatlar.

## NATIJALAR

Banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari daromadlar va xarajatlarni o'zida ifoda etgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot orqali aniqlanadi va shuningdek natijalar tushuntiriladi. Bank moliyaviy holatini aks ettiruvchi hisobot ham aynan mos davrlar uchun taqdim etib boriladigan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot hisoblanadi.



**1-diagramma. Bank tizimi sof foydasi<sup>13</sup> (mlrd.so'm)**

<sup>13</sup> www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Diagrammadan ko‘rish mumkinki bank tizimi sof foydasi 2019-yilda 3 200 mlrd.so‘mni, 2020-yilda 5 642 mlrd.so‘mni va 2021-yilda 3 885 mlrd.so‘mni tashkil etgan. 2019-yilda 70% va 2020-yilda 76% ga o‘sgan bo‘lsa, 2021-yilda esa 31% ga kamaygan. 2021-yil sof foydaning kamayishiga sabab kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash ko'rsatkichi, ya'ni soddaroq qilib aytganda muammoli (NPL) kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun shakllantirilgan maxsus zaxiralar hisoblanadi. Ma'lumki 2020-yil mart oyidan boshlangan pandemiya bank tizimiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Buni esa quyidagidagi jadvaldagi ma'lumotlardan yaqqol ko'rish mumkin.

## 1-jadval

Bank tizimi daromad va xarajatlari<sup>14</sup>

mlrd.so‘m

| №  | Ko'rsatkichlar  | 2019 yil | O'tgan yilga nisbatan o'sish | 2020 yil | O'tgan yilga nisbatan o'sish | 2021 yil | O'tgan yilga nisbatan o'sish |
|----|---|----------|------------------------------|----------|------------------------------|----------|------------------------------|
| 1  | Foizli daromadlar   | 14517    | 182%                         | 37067    | 255%                         | 47392    | 128%                         |
| 2  | Foizli xarajatlar   | 8355     | 181%                         | 23019    | 276%                         | 30796    | 134%                         |
| 3  | Foizli marja  | 6162     | 185%                         | 14048    | 228%                         | 16596    | 118%                         |
| 4  | Foizsiz daromadlar  | 6564     | 95%                          | 11801    | 180%                         | 17251    | 146%                         |
| 5  | Foizsiz xarajatlar  | 1343     | 69%                          | 3516     | 262%                         | 4944     | 141%                         |
| 6  | Operatsion xarajatlar   | 5583     | 135%                         | 8145     | 146%                         | 10998    | 135%                         |
| 7  | Foizsiz sof daromad (zarar)   | -362     | -43%                         | 140      | -39%                         | 1309     | 935%                         |
| 8  | Kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash | 1746     | 107%                         | 6354     | 364%                         | 12221    | 192%                         |
| 9  | Boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash  | 196      | 70%                          | 873      | 445%                         | 333      | 38%                          |
| 10 | Soliq to'lagunga qadar sof foyda (zarar)                                | 3858     | 170%                         | 6961     | 180%                         | 5351     | 77%                          |
| 11 | Foyda solig'ini to'lash xarajatlari                                     | 659      | 173%                         | 1318     | 200%                         | 1465     | 111%                         |
| 12 | Sof foyda (zarar)   | 3200     | 170%                         | 5642     | 176%                         | 3885     | 69%                          |

Yuqoridagi 1-jadvalda Respublikamiz bank tizimining 2019 – 2021-yillardagi bankning sof foydasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlar, ya‘ni

<sup>14</sup> www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

daromad va xarajatlari aks ettirilgan. Foizli marja 2019-yilda 85% ga, 2020-yilda 128% ga, 2021-yilda 18% ga o'sgan. Foizsiz sof daromadlar esa 2019-yilda -362 mlrd.so'm zarar, 2020-yilda 140 mlrd.so'm daromad va 2021-yilda esa 835% ga o'sib 1309 mlrd.so'm daromad bilan yakunlangan. Keskin o'sish 2019-yilda 85% bilan foizli marja ko'rsatkichida, 2020-yilda 345% bilan boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash ko'rsatkichida va 2021-yilda 835% bilan foizsiz sof daromadlarda kuzatilgan. Keskin kamayish esa 2019-yilda 143% bilan foizsiz sof daromadlarda, 2021-yilda 62% bilan boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash ko'rsatkichlarida kuzatilgan. 2020-yilda esa barcha ko'rsatkichlarda o'sish kuzatilgan.

## MUHOKAMA

Foyda har bir tijorat tashkilotining davom etishi uchun omildir. Rentabellik darajasi va foyda hajmi banklar resurslarini joylashtirishda samaradorlik ko'rsatkichlari sifatida qaraladi. Rentabellik, shuningdek, banklarning daromad olish qobiliyatini ko'rsatadi. Bu banklarning boshqaruv malakasini ifodalaydi. Rentabellik eng muhim va ishonchli ko'rsatkichdir, chunki u bankning daromad darajasini oshirish qobiliyatini aks ettiradi.

Daromadlilik ko'rsatkichlari tijorat bankining global risk pozitsiyasini aniqlash uchun ham qo'llaniladi. Banklarda rentabellikni tahlil qilish koeffitsientlar to'plamiga asoslanadi: aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi, sof foizli marjasi koeffitsienti, xarajatlarning daromadga nisbati, o'z kapitali multiplikatori. Rentabellik bankka aktivlarning o'sishini qo'llab-quvvatlash, kredit yo'qotishlarini o'zlashtirish va investorlarga daromadni ta'minlash uchun kapitalni ko'paytirishga imkon beradi.

Aktivlar rentabelligi (ROA) - sof foyda va jami aktivlar o'rtasidagi nisbat. Amerika adabiyotida bu nisbat jami aktivlar rentabelligi yoki investitsiyalar rentabelligi deb nomlanadi va bankka qo'yilgan kapitalning rentabelligini yoki aktivlarni boshqarish samaradorligini o'lchaydi.

$$ROA = \frac{\text{Soliq to'langunga qadar sof foyda}}{\text{Aktivlarning o'rtacha summasi}} * 100\% \quad (1)$$

ROA aktivlarning pul birligidan qancha sof daromad olinganligini ko'rsatadi. Koeffitsient qanchalik yuqori bo'lsa, bank shunchalik foydali bo'ladi. Koeffitsientning pasayish tendentsiyasi bo'lsa, shuni aytishimiz mumkinki, bank daromad olishda ba'zi qiyinchiliklarga duch keladi va o'sish tendentsiyasi yaxshi natijalarni bildiradi, lekin risklilik darajasi ham daromadlilik darajasiga to'g'ri proporsional hisoblanadi. Ya'ni

daromadlilik darajasi qancha yuqori bo'lsa, risklilik darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Mutaxassislarining fikriga ko'ra normativ darajasi 1% ni tashkil etadi.

Kapital rentabelligi (ROE) - bu aksiyadorlarning investitsiyalarining rentabelligini o'lchaydigan sof foyda va umumiy kapital o'rtasidagi nisbat. Bu ko'rsatkichning normativ darajasi 10% qilib belgilangan. Bu degani, investor har 1 so'mlik aksiyasi uchun 10 tiyin foyda oladi.

$$ROE = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Kapitalning o'rtacha summasi}} * 100\% \quad (2)$$

Bank faoliyatidagi sof foizli marja koeffitsienti foizli marjaning jami aktivlarga nisbatidir. Foizli marja foizli daromadlardan foizli xarajatlarni ayirish yo'li bilan hisoblanadi. Bu koeffitsient tijorat banking jami aktivlarining o'rtacha summasiga nisbatan, sof foizli daromad olish qobiliyatini tavsiflaydi. Bu ko'rsatkichning tijorat banklari uchun amaliy ahamiyati shundaki, u sof foizli daromadning normativ darajasini ifodalaydi, sof foizli daromad esa tijorat banklarining moliyaviy holatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Normativ darajasi 4,5% ni tashkil etadi.

$$SFMK = \frac{\text{Foizli marja}}{\text{Aktivlarning o'rtacha summasi}} * 100\% \quad (3)$$

Xarajatlarning daromadga nisbati har bir pul birligi uchun ishlab chiqarilgan daromadni o'lchaydi. Mahsulot birligini ishlab chiqarish bank uchun shunchalik qimmatga tushadi. X/D nisbati qanchalik past bo'lsa, bank faoliyati shunchalik yaxshi bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichning darajasi 45% dan oshmasa ijobiy holat hisoblanadi.

$$X/D = \frac{\text{Xarajatlar}}{\text{Daromadlar}} * 100\% \quad (4)$$

Xususiy kapital multiplikatori - jami aktivlar va o'z kapitali o'rtasidagi nisbat bo'lib, ma'lum miqdordagi o'z mablag'laridan boshlab bank biznesining rivojlanish darajasini va qo'shimcha resurslardan foydalanish o'z kapitalining rentabelligini oshirishni ko'rsatadi.

$$KM = \frac{\text{Jami aktivlar}}{\text{Kapital}} * 100\% \quad (5)$$

Operatsion daromadlar koeffitsienti (ODK) tijorat banki moliyaviy holatining operatsion faoliyatiga bog'liqlik darajasini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichning normativ darajasi 1,0 foizni tashkil etadi.

$$ODK = \frac{\text{Operatsion daromadlar summasi}}{\text{Aktivlarning o'rtacha summasi}} * 100\% \quad (6)$$

Respublikamiz bank amaliyotida daromadlilik ko'rsatkichlari tahlilida asosan soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA), soliq to'langunga qadar sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE), sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati, kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati, sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati va sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.


## 2-jadval

**Bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlari<sup>15</sup> (%da)**

| № | Ko'rsatkichlar  | 2019 yil | O'sish | 2020 yil | O'sish | 2021 yil | O'sish |
|---|---|----------|--------|----------|--------|----------|--------|
| 1 | Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA)                     | 2,2      | 110%   | 2,2      | 100%   | 1,3      | 59%    |
| 2 | Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE)                      | 16,7     | 103%   | 10,3     | 62%    | 6,1      | 59%    |
| 3 | Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati                                       | 3,6      | 124%   | 3,8      | 106%   | 3,7      | 97%    |
| 4 | Kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati | 4,7      | 127%   | 5,1      | 109%   | 5,1      | 100%   |
| 5 | Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati                                  | 4,5      | 136%   | 4,6      | 102%   | 4,4      | 96%    |
| 6 | Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati  | 3,9      | 118%   | 4,5      | 115%   | 4,2      | 93%    |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki 2019-yilda 2018-yilga nisbatan barcha ko'rsatkichlarda o'sish kuzatilgan. 2020-yilda ROE ko'rsatkichi 38% ga kamayib 10,3% ni tashkil etgan bo'lsada, qolgan ko'rsatkichlarda o'sishga erishilgan. 2021-yilda esa kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati o'zgarishsiz qolganligi hisobga olmaganda, barcha ko'rsatkichlarda 2020-yilga nisbatan kamayish kuzatilgan.

<sup>15</sup> www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



**1-grafik. Bank tizimi aktivlar rentabelligi (ROA) va kapital rentabelligi (ROE) ko'rsatkichlari<sup>16</sup>**

Yuqoridagi grafikdan ko'rish mumkinki ROA ko'rsatkichi 2019-yilda 2,2%, 2020-yilda 2,2% va 2021-yilda 1,3% ni tashkil etgan. ROA ko'rsatkichining 2021-yilda kamayishiga sabab o'tgan yilga nisbatan sof foydaning 31% ga kamayishi va aktivlarning 22% ga o'sishidir. ROE ko'rsatkichida esa keskin pasayish tendensiyasi kuzatilib, 2019-yilda 16,7% ni, 2020-yilda 10,3% ni va 2021-yilda 6,1% ni tashkil etgan. Bunga sabab kapitalning o'zgarishi bilan sof foydaning o'zgarishi o'rtasida tenglik buzilgan. Ya'ni 2020-yilda jami kapital 119% ga o'sgan, lekin sof foyda 76% ga o'sgan xolos. 2021-yilda esa jami kapital 22% ga o'sgan, lekin sof foyda 31% ga kamaygan. Shuning uchun bu ko'rsatkichda oxirgi yilda pasayish kuzatilgan.

## XULOSA

Bank faoliyati sifatini va ularning samaradorligini baholash uchun daromadlilik ko'rsatkichlarini tahlil qilish muhimdir va ularning xususiyati daromad va xarajatlarga bog'liq. Bank faoliyatini tahlil qilish aksiyadorlar, kreditorlar, mijozlar, shuningdek, bank ma'murlari, rahbarlari va xodimlari uchun foydalidir.

2019 – 2021-yillar bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlarini tahlil qilib shuni aytish mumkinki, 2019 – 2020-yillarda bu ko'rsatkichlar normativ darajasida bo'lgan, lekin 2021-yilga kelib kamayish kuzatilgan. 2020-yil mart oyida boshlangan pandemiya bank tizimining 2021-yildagi ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu

<sup>16</sup> www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



bilan bir qatorda, banklarning kredit portfelidagi muammoli kreditlarning ulushi ortib ketganlidir. Markaziy bankning ma'lumotiga ko'ra 2022-yil 01-yanvar holatiga tijorat banklarining muammoli kreditlarning (NPL) jami kreditlardagi ulushi 5,2% ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2020-yilning mos davriga nisbatan 148% ga o'sib, deyarli 2,5 barobarga ortgan. Bu esa o'z navbatida sof foydaning kamayishiga, daromadlilik ko'rsatkichlarining pasayishiga va investitsiya oqimini kamayishiga olib keladi. Shuning uchun kreditlar banklarning asosiy daromad manbai bo'lib qolmasligi kerak. Xulosa qilib aytganda tijorat banklarining daromad va xarajatlarini samarali boshqarish va muntazam ravishda tahlil qilib borish bankning daromadlilik ko'rsatkichlarini normativ darajasida ushlab turish va rentabellik darajasini oshirib borish imkonini beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi" O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 773-17, 13.08.2004 y.
2. Abdullayeva Sh. Bank ishi –Toshkent: Iqtisod-moliya, 2017, 555-570.
3. Saidov D. Tijorat banklari aktiv va boshqarish –Toshkent: TFI, 2020, 145-150.
4. Лаврушина О.И. Банковское дело –М. Финансы и статистика, 2011, 412.
5. Steven M. Bragg, Business Ratios and Formulas: A Comprehensive Guide 3rd edition – USA: John Wiley & Sons Inc, april 2012, 384.
6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
7. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
8. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)